

**ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING  
AHAMIYATI**

**Qayumova Dilorom G'aybullayevna**

**Mardonova Dilfuza Boboqulovna**

*Navoiy viloyati Navbahor tumani*

*5- umumiy o'rta ta'lim maktabi*

*Boshlang'ich sinf o'qituvchilari*

**Djurayeva Dilbar Niyazovna**

*Navoiy viloyati Navbahor tumani*

*5- umumiy o'rta ta'lim maktabi*

*Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Bugungi rivojlanib borayotgan mustaqil O'zbekistonimizda o'quvchi yoshlarni ta'limga to'g'ri yo'naltirish juda katta ahamiyatga ega. Zero, yurtimizning kelajagi yoshlarimiz qo'lida. Ma'lumki, o'quvchilarimizning ko'p vaqtlari maktabda o'tadi. Ularning ta'lim olishini to'g'ri tashkil etish esa, biz o'qituvchilarning zimmasidagi yuksak burchdir. Ta'lim jarayonida darslarni tashkil etishda an'anaviylikdan chekinib, turli interfaol usullar, innovatsion texnologiyalardan foydalanilsa o'quvchi-yoshlarning ta'limga qiziqishlari oshishi barobarida, ta'lim sifati ham ko'tariladi.

Ona tili darslarida o'quvchilarga beriladigan bilimlar keyingi yillarda asosan nazariy asosga qurilayotganligi amaliy malakalarning sayozlashuviga olib kelmoqda.

Darsda asosan o'rganilayotgan qoidani yod oldirish va unga darslikdan misol keltirish va mashq ishlash bilan cheklanilmoqda. Bu esa o'quvchi-yoshlarni darsdan zerikishlariga sabab bo'lmoqda.

Dars davomida faqat darslik bilan ishlanmoqda. Oqibatda o'qituvchi darslik o'qituvchisi, o'quvchi darslik o'quvchisi bo'lib qolmoqda. Shu sababli o'quvchilar darslikdan tashqari talablarni bajara olmayaptilar, hayotning o'zi misol va qoida ekanligini anglab yetmayaptilar. Shunday ekan, amaliy bilimni shakllantirish asoslarini ishlab chiqishga diqqat qaratish lozim. Buning uchun darsda faqat mashqlar bilan cheklanmay, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, lug'at ustida ishlashga o'rgatish, ularda to'g'ri talaffuz normalarini shakllantirish hamda fikrlash, tafakkur qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar berish kerak. Hozir o'quvchilarni har bir darsda faol ishtirok etishga undovchi noan'anaviy dars metodidan foydalanilyapti. Bu dars metodi hozirda turli joylarda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatyapti.

Interfaol metodlarning juda ko'p turlari mavjud. Masalan: Rolli o'yin, Davra suhbat, Baxs-munozara, Muammoli vaziyatlar, Zanjir, Chala xat, Maktub, Blits so'rov, Venn diagrammasi, Assisment texnologiyasi, Swot tahlil, Sinkveyn va hokazo.

Bu metodlardan boshlang'ich va yuqori sinf ona tili darolarida foydalanish o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi. O'z vaqtida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samimiy aloqalar o'rnatiladi. O'qitish usullari ta'lim jarayonlarida turli xil ko'rinishlarda kechadi. (yakka, juft, guruh, katta guruhlarda) namoyon bo'ladi. O'quv jarayoni o'quv ehtiyojini qondirish bilan yuqori mativatsiyaga ega bo'ladi. Axborat berish, olish va qayta ishlash, o'zaro muloqatga kirish, fikr bildirish, fikr almashish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

Quyida fanni o'rgatishda qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik usul va texnologiyalarni keltiramiz.

Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Ushbu maqolada keltirilgan zamonaviy metodlar o'quvchida mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashda yordam beradi.

Tinglang va xulosa chiqaring.

Bu o'yin bog'lovchi zveno vazifasini bajaradigan o'yinlardan bo'lib, bir mavzudan ikkinchi mavzuga "yengil" o'tish imkoniyatini tug'diradi. Yangi mavzuga muqaddima, turli tushunchalarni o'zaro bog'lovchi "ko'priq" vazifasini o'taydi.

O'yinni o'tkazishdan maqsadlar: Sinf o'quvchilarining diqqatini koordinatsiya qilish. O'quvchilarni guruh b'olib ishlashga jalb etish.

Yangi mavzu taqdimotida o'zaro qanday muloqotga kirishish va bir-birini tinglash madaniyatini shakllantirish.

O'yin uchun 15 minut vaqt ajratiladi. O'yinni o'tkazish uchun tavsiyalar:

O'qituvchisi sinf o'quvchilariga quyidagi topshiriqni beradi: Boshqa ijodiy guruhlardan o'zingizga ikki nafar sherik tanlang. 3 kishi bo'lib, o'zlaringizga ma'qul rang tanlang. Masalan, O'zbekiston Respublikasining bayrog'idagi ranglardan: zangor, qizil, oq, moviy

Kichik ijodiy guruhlarning har biri boshqalarga nimalar to'g'risida so'zlab berish mumkinligini maslahatlashadilar, ona tili darolarida yaqin orada o'rgatilgan mavzulardan birini tanlaydilar ("Til va jamiyat", "So'z tarkibi", "Kesim", "Sodda yig'iq gap", "Gap qoliplari", "So'z birikmalari", "Uyushiq

bo'laklar", "Undalma", "Qo'shma gap", "Ko'chirma gap" kabi). O'ylash uchun 2 minut vaqt beriladi.

Taqdimotda har bir ijodiy guruh o'zi tanlagan mavzu bo'yicha boshqalarga ma'lumot beradi. 3 ta qatnashchi bir-birini to'ldiradi. Taqdimot uchun 2 minutdan vaqt ajratiladi. O'qituvchi vaqtni kuzatib turadi. Boshqa guruh a'zolari eshitganlari haqida xulosa chiqarib beradilar. Bu o'yindagi so'nggi halqa bo'lib, xulosalarga alohida ahamiyat beriladi. Yuqoridagi o'yin vositasida o'tilgan mavzularni takrorlash yengillashadi. O'quvchilarda oz vaqt ichida mavjud bilimlar yuzasidan mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmasi shakllanadi. Bu esa tanqidiy fikrlashni o'stirishdagi muhim omildir.

Zakovat o'yini

Bu o'yinni o'tkazishda dastlab auditoriyani o'yinga moslashtirish lozim bo'adi.

O'yin ishtirokchilari test yordamida saralab olinadi. Yuqori ball olgan o'quvchilar o'yinda ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi. O'yin qatnashchilari 6-8 kishidan iborat bo'ladi. Qolgan o'quvchilar esa o'yinni tamoshabin sifatida kuzatib turishadi. O'yin uchun mo'ljallangan savollar konvertga joylashtirib qo'yiladi. Guruh sardori savolni olib o'qituvchiga beradi. O'qituvchi savolni o'qib eshittiradi. Javobni aniqlash uchun bir daqiqa vaqt ajratiladi. Bu vaqt orasida o'yin ishtirokchilari javobni maslahatlashib topishga harakat qilishadi. Zakavot o'yinlarida asosan, o'rtaga muammoli savollar tashlanib, shu muammoni hal etishga diqqat qaratiladi.

"Zanjir"— metodi esa butun boshli sinf o'quvchilarini darsga jalb etishni ko'zda tutadi. Metodani qo'llashdan oldin indinga o'tiladigan mavzu uy vazifasi sifatida va mavzuda biror bir ma'lumot qolmagan holda o'quvchilarga tarqatma sifatida beriladi.

"Assiment"— metodi o'quvchilarning olgan bilimlarini tez baholash imkonini beradi. Bunda o'tilgan mavzu yuzasidan bitta test, yoki qoidaning ma'lum bir so'zlari tushirib qoldirilgan va shu so'zni topish kabi topshiriqlar beriladi.

O'quvchilarga rasmi topshiriqlarni topshirtirib, ularni fikrlashga, topqirlikka, ijodkorlikka undaydi hamda yozma va og'zaki nutqni o'stirib, lug'at boyligini oshiradi.

O'quvchilarning topqiriligini, harflarni eslab qolish qobiliyatini o'stirishda quyidagi metodlar samarali natijalar beradi:

Kungoboqar metodi - kungoboqar rasmi o'rtasida unli harflar, uning atrofida esa, undosh harflar yozilgan bo'ladi. O'quvchilar undosh va bitta unli harflarni qo'shib, bir necha so'zlar tuzishadi. O'yin davomida o'rtadagi unliharflarni almashtirish ham mumkin. Bu jarayonda hamma o'quvchilar

baravar ishtirok etadilar. O'qituvchi esa mashg'ulot davomida eng faolqatnashganlarni rag'batlantirib, baholab boradi. Bu usul ona tili darslarini qiziqarli tashkil etish, darslarda o'quvchilarning toliqib qolishlarining oldini olish va qisqa vaqt davomida ko'proq o'quvchilarni baholashga xizmat qiladi.

Darsda interaktiv usullar qo'llashni shunday tashkil etish kerakki, ya'ni dars o'tish jarayonida o'quv materiallarining ma'lum bir qismi o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganiladi. O'qituvchi o'quv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hisoblanadi. O'quvchilarning sinfda o'zini erkin his qilishi va o'quv faoliyati uni emotsional jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o'zining fikrlarini erkin bayon qila oladi.

Sanalib o'tilgan metodlarimiz ayniqsa, ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega . Bu metodlar orqali o'quvchilar faqat bilim olib qolmasdan olgan bilimlarini kelajakda qo'llay olish malakasini rivojlantiradi. Hayotda o'ziga ishonch bilan qarashga o'rganadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Tolipov M., Xudoyberganov Sh., Abduqodirov R. Hozirgi zamon darsining didaktik-uslubiy masalalari. Toshkent, "Tafakkur", 1998 yil.

2 . Yangi pedagogik texnologiyalarning yo'nalishlari, muammolari va yechimlari. Toshkent, 1999 yil.

3.[www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)